

## “AQL MARKAZLARI” NING QAROR QABUL QILISHDAGI AHAMIYATI

Jasur Turg‘unboyev

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: [jasurbek9600@gmail.com](mailto:jasurbek9600@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

AQSH “aql markaz”lari uchun sifatli intellektual mahsulotni ishlab chiqarish qanchalik muhim bo‘lsa, uni qaror qabul qiluvchiga yetkazish hamda ta’sir ko‘rsatish shunday ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, mazkur yo‘nalishda tahlil markazlari turli usullar va texnologiyalardan foydalanishadi. AQSHda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanishi tahlil markazlari tomonidan qaror qabul qiluvchiga ta’sir ko‘rsatish usullarini ham o‘zgarishiga olib keldi.

**Kalit so‘zlar:** AQSH, “aql markaz”i, ta’sir etish, qaror, siyosat, xalqaro munosabatlar.

Intellektual mahsulotni yakuniy iste’molchiga yetkazib berishning ikkita mexanizmini shartli ravishda ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, siyosiy elitaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “sotish” va jamoatchilik fikrini qayta ishlash bo‘lib, kelajakda bu g‘oyani siyosiy elitaga “lobbi qilish” mumkin. Qayd etish kerakki, ko‘pincha ikkala mexanizm bir vaqtning o‘zida ishlatiladi.

Tahlil markazlari har doim siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish uchun turli rasmiy kanallardan foydalangan. Bularga tahliliy markaz xodimlarining Kongress tinglovlari va hukumat qo‘mitalarida taklif etilgan ekspert sifatida chiqishlari kiradi. Ba’zi tadqiqot markazlari, ayniqsa shartnoma asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori mansabdor shaxslarga yuboriladigan rasmiy hisobotlarni tayyorlaydilar. Bundan tashqari, tahlil markazlari xodimlari hukumat qarorlarini qabul qilishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan norasmiy aloqalarni ham olib boradi. Xususan, ular bilan muayyan masalalar bo‘yicha ekspert guruhlari tarkibida hamkorlik qiladi.

Nisbatan yashirin bo‘lishiga qaramay, tahlil markazlari AQSH siyosatchilariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. AQHlik siyosatshunos Richard Xaas mazkur jarayon besh xil yo‘nalishda sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. Ya’ni eng maqbul siyosiy qarorlarni ishlab chiqishga xissa qo‘sish, hukumatda xizmat qilish uchun tayyor ekspertlar kontingentini ta’minalash, yuqori darajadagi muhokamalar uchun forumlar taklif qilish, AQSh jamoatchiligin xalqaro siyosat bo‘yicha xabardor qilish, hukumatga nizolarni hal qilishda vositachilik qilish va hal qilishda yordam berish.

Siyosatshunos va davlar arbobi Zbignev Bjezinski siyosatchilar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan ekspertlar hukumat siyosati chuqur inqirozga uchraganida katta ta’sirga ega bo‘ladi deya ta’kidlaydi. Misol uchun, Vietnam urushi misolida bo‘lgani kabi hukumatning urushga bo‘lgan noto‘g‘ri siyosati natijasida mutaxassislarning fikrlari diqqat bilan tinglana boshlaydi.

“Aql markaz”lari ta’sirining asosiy omillaridan biri ularning siyosiy doktrinalarni ishlab chiqishidir. Ma’lum tarixiy davrlar tashqi siyosat sohasida yangi qarorlarni joriy etish uchun juda qulay imkoniyatlar yaratadi. Misol sifatida Ikkinci Jahon urushini keltirish mumkin. Jumladan, urush boshlanganidan so‘ng, Tashqi aloqalar kengashi “Urush va tinchlik tadqiqotlari” deb nomlangan yirik loyihani amalga oshirib, uning doirasida urushdan keyingi dunyo tartiboti asoslarini ishlab chiqadi. Tadqiqotchi olim Richard Xaas mazkur tashabbus ishtirokchilari Davlat departamenti uchun Germanianing bosib olinishidan tortib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishigacha bo‘lgan mavzularda 682 ta memorandum tayyorladilar deya ta’kidlagan edi.

Tahlil markazlari tomonidan qaror qabul qiluvchiga ta’sir etishning turli yo‘llari bo‘lib, bugungi kunda eng keng tarqalgan usullardan biri – sifatli intellektual mahsulot bo‘lgan maqolalar chiqarish. Maqolaning ta’sir kuchi borasida bir qancha misollarni keltirib o‘tish mumkin. Xususan, Ikkinci Jahon urushidan ikki yil o‘tib, “Foreign Affairs” sovet jurnalida “Sovet xulq-atvorining kelib chiqishi” nomli anonim maqola chop etildi. AQSHlik diplomat Jorj Kennan tomonidan yozilgan maqola keyingi qirq yillikda AQSH tomonidan olib borilayotgan tiyilib turish siyosati uchun intellektual asos yaratishga yordam berdi. Bundash tashqari, birgina maqolaning jahon tashqi siyosatiga ta’sirining navbatdagi misoli Frencis Fukuyamaning “Tarixning oxiri” asarining nashr etilishi bo‘ldi. Unda tadqiqotchi tarixning oxiri boshlanishini sivilizatsiya tuzilmalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik va bir qutbli dunyo mavjudligiga o‘tish sifatida ko‘rsatdi. Bir muddat ushbu maqolada aytilgan fikrlar aksioma sifatida qabul qilindi. Yana shunday katta ta’sirga ega maqola sifatida Samuel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi”ni keltirib o‘tish mumkin.

Tahlil markazlari ekspertlarining davlat yuqori mulozimlari bilan yaqin tanishligi ham ta’sir ko‘rsatishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. “Heritage Foundation” tahlil markazini AQSHdagi neokonservativ inqilobning mafkurachilari va ijodkorlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Markazning o’sha paytdagi prezidenti Edvin Folnerning Ronald Reyganning o‘tish davri ma’muriyatining asosiy arboblari bilan tanishishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tahlil markazi prezidenti ma’muriyatga 1980 yilda ishlab chiqilgan 20 jildlik “Yetakchilik mandati” (Mandate for Leadership) tadqiqotini tadqim etadi. Bundan tashqari, “Yulduzli urushlar” ideologgi general Daniel

Gremning “Heritage Foundation” bilan hamkorligi unga qarashlarini Reygan ma’muriyatiga yetkazish imkonini berdi.

Jamiyat hayotidagi muhim siyosiy voqealar davrida “aql markaz”lari muhim ta’sir etuvchi kuchga aylanadi. Shulardan biri sifatida mamlakatdagi saylovlarni keltirib o’tish mumkin. Saylovlar davrida “aql markaz”lari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ta’sir ko‘rsatish kuchiga aylanadi. Mazkur davrda prezidentlikka nomzodlar turli ichki va tashqi siyosat masalalari bo‘yicha siyosiy pozitsiyalarini aniqlash uchun juda ko‘p mutaxassislardan maslahat so‘rashadi. Nomzodlar siyosat bo‘yicha ekspertlar bilan fikr almashadilar va bu g‘oyalarni saylovlar davomida sinab ko‘radilar. Guver instituti “aql markazi” eksperti Martin Anderson mazkur jarayonni umummilliy sinov marketing strategiyasiga o‘xshatadi. Tahlil markazlarining maslahatlar e’tiborga olinadi. Bunga misol qilib, 1992 yilda Jahon iqtisodiyot Instituti va Karnegi jamg‘armasi tomonidan tayyorlangan, “Iqtisodiy xavfsizlik kengashi”ni tuzishni taklif qilgan hisobotni keltirish mumkin. Keyinchalik hokimiyatga kelgan B. Clinton ma’muriyati bu taklifni amalga oshirib, Milliy Iqtisodiy Kengashi tuzadi. Mazkur organ bugungi kunda ham faoliyat yuritmoqda.

Ma’lumki, AQSHning ko‘plab prezidentlari saylovoldi davrida turli tahlil markazlariga murojaat qilishgan. “Aql markaz”lari sohasida tadqiqot olib borgan olim Donald Abelson bunga bir qancha sabablarni keltiradi. Avvalo, yetarlicha tajribaga ega bo‘lman nomzodlar uchun sobiq yuqori martabali siyosatchilar va taniqli ekspertlarni o‘z ichiga olgan tahlil markazlari AQSH siyosiy tizimi faoliyati haqida qimmatli ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, ularning tadqiqotlari nomzodlarga hozirgi siyosiy kun tartibidagi mavzularni aniqroq tushunishga yordam beradi. Tahlil markazlari ham biznes va siyosiy doiralardagi aloqalarni kengaytirish imkonini beradi. Nomzod tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar ma’lum bir tahlil markazida ishlaydigan taniqli olimlarning qo‘llab-quvvatlashi tufayli ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Qayd etish kerakki, saylovda g‘alaba qozongan taqdirda, yangi saylangan prezident o‘zini qo‘llab-quvvatlagan tahliliy markazlar a’zolarini yuqori davlat lavozimlariga tayinlash orqali tez-tez o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Donald E. Abelson. A Capitol Idea. Think Tanks & US Foreign Policy. McGill-Queen's University Press, 2006. p. 180.
2. P. Haac. «Мозговые центры» и американская внешняя политика: точка зрения политика. Внешняя политика США. — 2002. — Т. 7. — № 3.
3. James McCormick. American Foreign Policy and Process. Fifth Edition. Wadsworth, 2010. p. 496.
4. Brookings testimony // <http://www.brookings.edu/research/testimony#/?start=26&sort=ContentDate>
5. 2021 Annual Report // [https://www.cato.org/sites/cato.org/files/2022-05/Annual\\_Report\\_2021\\_FINAL\\_WEB\\_Updated.pdf](https://www.cato.org/sites/cato.org/files/2022-05/Annual_Report_2021_FINAL_WEB_Updated.pdf)
6. Rice S. E. We Need to Talk to North Korea. The Washington Post, <http://www.washingtonpost.com/wpdyn/content/article/2005/06/02/AR2005060201751.html>
7. 2021 Annual Report // <https://www.heritage.org/annual-report-2021/>